



CHOLG'U IJROCHILIGI DARSLARINI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muallif: Burxonova Gullrux Umrzoqovna ¹, Samatova Dilnoza Salaidinovna ²

Affilyatsiya: O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Musika ta'limi” kafedrasida assistenti ¹, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Musika ta'limi” kafedrasida katta o'qituvchi ²

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14406123>

ANNOTATSIYA

Yosh mutaxassisning shakllanishida eng muhim va asosiy jihatlardan biri – bu uning ta'lim olish jarayonida kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirishidir. Bunda cholg'u ijrochiligi darslarini integratsion yondashuv asosida o'qitishni tashkil etish, darsning sifat va samaradorligini oshirish, talabalarni cholg'u ijrochiligi malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda cholg'u ijrochiligi darslarini integratsion yondashuv asosida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari maqolada keng yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: cholg'u ijrochiligi, integratsiya, talaba, o'qituvchi, dars mashg'ulotlari, ijrochilik malakalari.

Dunyo miqyosida shaxsning ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga qaratilgan ilmiy-pedagogik jarayonlar ijtimoiy-madaniy va estetik kategoriyalar integrallashuvi asosida muntazam takomillashib bormoqda. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlarni ma'nan va jismonan barkamol, milliy ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash tizimini sifat jihatdan muntazam takomillashtirib borishning pedagogik imkoniyatlari, ilg'or xorijiy tajriba va texnologiyalardan samarali foydalanishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil, 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonuni[2], 2022-yil, 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida” kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda musiqa va san'at sohasida faoliyat olib boruvchi o'quv muassasalarining o'z o'rnini va mavqeyi g'oyat kattadir.

Yurtimiz madaniyati taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon musiqa san'ati madaniyati ilmiy rivojlanish texnik bazasi va texnologiyasining so'ngi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-112 Qarori[3] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi oliy ta'lim muassasalari oldiga qator muhim vazifalarni qo'yadi va pedagogik kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy faoliyati ijtimoiy va ta'lim funksiyalarining murakkabligi tufayli yangi mazmun bilan to'ldirilmoqda. Bugungi kunda tor doiradagi yangi mutaxassis emas, balki malakali, pedagogik madaniyati, boy shaxsiy va ijodiy salohiyatiga ega bo'lgan o'qituvchini sifat jihatidan yangi shakllangan musiqa ta'limi o'qituvchisini tayyorlash muammosi ayniqsa dolzarbdir. Uning faoliyati samaradorligini faqat yuqori darajadagi kasbiy va pedagogik mahorat bilan ta'minlash mumkin[9].

Oliy ta'lim muassasalari musiqa ta'limi yo'nalishining vazifasi bo'lajak musiqa o'qituvchilarini umumta'lim maktablarida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, musiqa maktablarida faoliyat yuritishga tayyorgarliklarini, ularni nazariy bilim va ijrochilik malakalarini ko'lamini professional darajada shakllantirishdan iboratdir. Zero, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish ko'p jihatdan o'quvchilarni nazariy va amaliy tayyorgarligi bilan bog'liq.

Oliy ta'lim muassasalari musiqa ta'limi yo'nalishida ta'lim-tarbiya jarayoni faqatgina nazariy bilimlar berish bilan cheklanib qolmasdan musiqa san'atining ko'pgina sohalarini integratsion yondashuv asosida o'qitish kabilardan mukammal bilim, malakalarga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Ma'lumki, shaxsning hissiy va aqliy kamol topishida, ijtimoiy faolligida musiqa alohida ahamiyat kasb etadi. Yosh mutaxassisning shakllanishida eng muhim va asosiy jihatlardan biri esa – bu uning ta'lim olish jarayonida kasbiy ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirishidir. Bu asnoda davlat va jamiyat bilan bir qatorda o'qituvchi-pedagog ham katta rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev: "Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi. Va men ishonaman, ular dunyoni ma'naviy tanazzuldan qutqarishga qodir bo'lgan, o'zaro ahillik va birdamlikni ulug'lovchi avlod bo'lib maydonga chiqadi. Shu ma'noda musiqa – hech narsa bilan o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan beqiyos ta'sir kuchiga ega san'at, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz" degan edi.

Integratsiya (lotincha integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun so'zidan)— bu suveren davlatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni. 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differentsiatsiya bilan birga kechadi [6];

Ta'lim muassasalarini "Cholg'u ijrochiligi" yo'nalishida o'qitiladigan cholg'u ijrochiligi bo'limining maqsadi o'quvchi-yoshlarda ijrochilik mahorati va madaniyatini o'stirish, xalq cholg'u asboblari bo'yicha yakka tartibda sozandalik mahoratiga ega bo'lish va ansambllarda ijro eta olish mahoratlarini egallashlariga erishishni

ta'minlashdan iboratdir. Shunga milliy cholg'u sozi bo'yicha dars beruvchi mutaxassis-o'qituvchi quyidagi vazifalarga alohida e'tibor qaratishi zarur:

1. O'rgatuvchi o'qituvchilarni har bir cholg'uning ijro xususiyatlari, tuzilishi, shakli, pardalarini joylashish tartibi, oktava va nota joylashuvi bilan yaxshi tanishtirib borish.

2. Ijrochilikka oid barcha ko'rsatmalarni aniq bajarishga, cholg'uda ijro partiyalarini aniqlashga, ravon cholg'u sadosini (ohangi) eshitish malakasini shakllantirib borish.

3. Cholg'u bo'yicha ijrochilik repertuarini turlicha mazmun va xarakterdagi asarlar bilan to'ldirgan holda, xilma xil musiqa asarlarini o'rganish, chalish orqali ijro mahoratini doimiy o'stirib borishni ta'minlashi zarur.

4. Ijrochilik mahoratini o'stirishda cholg'u asboblarni o'rganish davomida gamma, etyud va mashqlarni roli va ahamiyatini tushungan holda mashqlarda ularni ijrosiga alohida e'tibor berish.

Mutaxassis o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri mashg'ulotlarni, ya'ni o'quv jarayonini pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etishi va boshqarishdir. Bu esa ta'limni ilmiylik, yangilik asosida tashkil etishning muhim shartlaridan biridir.

Mutaxassis o'qituvchining faoliyatini muhim xususiyatlaridan biri u o'z sinfida tashkilotchilik qobiliyatli, har bolaning o'z individual qobiliyat va qiziqishlarini sinchiklab o'rganish va shunga ko'ra repertuar tanlay olish mahoratiga ega bo'lishdir. O'qituvchi eng avvalo puxta nazariy bilimlarga ega bo'lishi, cholg'u asbobining o'ziga xos xususiyatlarini, ijro imkoniyatlarini yaxshi bilishi, ularda mashg'ulotlar olib borish, o'quvchining ijro malakalari rivojlanishi uchun mustaqil o'z ustida ishlashga yo'naltira olishi zarur[9].

Mashg'ulotlarda har bir cholg'u sozining tiniq va aniq sozlanishi juda muhim. Yaxshi sozlangan cholg'u sadosini yangrashiga salbiy ta'sir etadi va u o'z navbatida ijrochilik ruhiyatiga yomon ta'sir ko'rsatadi. Uning diqqat-e'tiborini buzadi, tovushlarni idrok etib chalish jarayonini qiyinlashtiradi.

Har bir musiqiy asarni o'rganishdan oldin uni qisqa tarzda bo'lsa ham tahlil qilish lozim. Tahlil jarayonida asar sur'ati, o'lchovi, shakli, bo'ladigan turli o'zgarishlarni aniq belgilab olish darkor. Pedagogik faoliyatda bir qator uslubiy jihatlarga alohida e'tibor talab etiladi:

1. Ijro uchun dastklab ijrosi oson, yengil xalq kuylaridan tanlash, bu o'quvchi imkoniyatlariga mos bo'lishiga e'tibor berish

2. Asarni o'rganishga kirishishdan oldin uning mazmun-mohiyati, muallifi, yaratilish davri (tarixi) haqida tushuncha berish.

3. Asar ijrosiga tegishli badiiy va texnik vazifalarni aniq belgilash va to'liq bajarishni nazorat qilish.

4. Ijrochilik sifatini yaxshilab borish maqsadida yakka va guruh bo'lib ishlashning yangi shakl va usullarini izlab amalda qo'llash.

5. O'quv materialini mashg'ulotlar bo'yicha qismlarga bo'lib ish olib borish.

6. O'quvchi bilan ishlash jarayonida ularda charchash, toliqish holatlari sezilganda asarlar bilan ishlashni boshqasiga, ya'ni yengilrog'iga almashtirish.

7. Yangi asar nota matnini puxta o'zlashtirib olish ko'nikmalarini o'stirib borish uchun nota matnini varaqdan o'qishni muntazam amalga oshirib borish.

8. Asarni qiyin joylariga tahririy o'zgartirishlar kiritib, uni yengilroq ijrosiga erishish.

9. Asarni ijro etishda barmoqlarni pardalar ustiga joylashish tartibini ko'rsatib berish.

10. O'rganuvchilarni doimiy tarzda iliq so'zlar bilan rag'batlantirib turish.

Ta'lim tizimida ijrochilarni mahoratini o'stirish va shu orqali ularni ijro ko'nikmasini shakllantirish masalalari ta'lim-tarbiyaning muhim vazifalaridan sanaladi.

Ta'lim jarayonida cholg'uchi ijrochilar uchun ijodiy sharoitning qulayligi, qo'yilgan musiqiy-badiiy vazifalarni katta qiziqish bilan bajarishga erishishning kafolatlovchi usulidir.

Mashg'ulotlar jarayonida ishtirokchilarning ijodiy intizomiga tegishli bo'lgan o'qituvchi-pedagogning barcha ko'rsatmalarini to'liq va aniq bajarishga harakat qilishlari, asarlarni qiziqish bilan o'rganishlari, do'stona vaziyatda bir biriga yaxshi tushuntirib ishlashlari bu faoliyatni ijobiy va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shularni inobatga olib aytish mumkinki, cholg'u sozlarida ijro etish o'quvchilarda ijrochilik madaniyatini shakllantirib boradi, axloqiy va aqliy tarbiyani o'stiradi, badiiy didni to'g'ri shakllanib, asar badiiy-g'oyaviy mazmuning tushunib ijro etish va mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Fortepiano cholg'u sozida ijro etish uslubiyoti barcha cholg'u sozlariga xos bo'lgan, darsni mashg'ulotini tashkil etishdan boshlanadi. O'quv rejada ko'rsatilgan vazifalarni bajarish, fanning o'quv dasturini shakllantirish va talaba bilan ishlashning turli usullarini qo'llash bilan bir qatorda, aynan fortepiano cholg'u soziga xos bo'lgan bir qancha jihatlar alohida ajralib turadi. Ularni taxminan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Fortepiano cholg'usi soz ekanligini tekshirish
2. Cholg'u sozida qomatni to'g'ri ushlash qoidalariga amal qilish (postanovka tela)
3. Qo'l va barmoqlarning cholg'u sozida to'g'ri quyilishi (postanovka ruk i palsev)
4. Applikatura (barmoqlarning klaviaturada to'g'ri joylashuvi)
5. Tovush hosil qilish ko'nikmalarini shakllantirish
6. Tovush ravon va bir tekis bo'lishini ta'minlash
7. Mashq, gamma va etyudlar ustida ishlash
8. Ijro tezligi ustida ishlash
9. Ritm, metr tushunchalarini his etish
10. Melizm va musiqiy bezaklar ustida ishlash
11. Asarlarning badiiy xususiyatlarini ochib berish ko'nikmalarini rivojlantirish

Ushbu jihatlar har qanday cholg'u soziga mos kelmasligini ta'kidlab o'tishimiz joiz, sababi yuqoridagi masalalar har bir cholg'u sozida har xil usul va uslublar bilan amalga oshiriladi.

Fortepiano cholg'u sozida mashqlar ustida ishlash

Fortepiano sozida mashqlar ijro etish turli maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan:

1. Ijrochi talabaning ijrochilik holati(postanovka)ni to'g'rilash;
2. Barmoqlar harakatini rivojlantirish (bunda qaysidir barmoqning yaxshi ishlamasligini, barmoqlarni klaviaturada to'g'ri joylashishi, ularning ko'tarilib ketishi yoki pastga tushib ketishi kabi kamchiliklarni bartaraf etish);

3. Barmoqlarning yumshoq (podushka) qismida emas, balki qattiq (konchik) qismida ijro etilishini ta'minlash;
4. Barmoqlarning qisilishini oldini olish maqsadida ijro etiladigan mashqlar;
5. Ijro texnikasini oshirish uchun turli murakkablikdagi arpedjiolar (II arpedjio) ijrosi;
6. Tovush kuchini kuchaytirish maqsadida turli akkordlar, uzun va qisqa arpedjiolar ijrosi;
7. Ikki qo'l mutanosibligini ta'minlash maqsadida ijro etiladigan mashqlar (Ganon mashqlari);
8. Ma'lum bir asarning murakkab passajlarini mashq sifatida qo'llash va hokazo namunalarini aytish mumkin.

Ijrochi pedagogning vazifalari

Shuningdek, musiqa ta'limi tizimida cholg'u ijrochiligi (fortepiano sinfi) fani ham juda muhim hisoblanadi. Fortepiano o'qituvchisi darsning namunali, qiziqarli va esda qolarli bo'lishiga intilishi kerak.

Fanni o'qitishning asosiy maqsad va vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Talabalarning garmonik va polifonik eshitishlarini rivojlantirish uchun cholg'u sozining afzalliklaridan foydalanish;
2. Notaga qarab o'qish va mustaqil musiqa ijro etishni o'rgatish, talabani umumiy musiqiy imkoniyatlarini va uning dunyoqarashini kengaytirishdan iborat;
3. Turli uslub va teksturali asarlarni ijro etish;
4. Ansambli va jo'rnavoqlik ijrochiligi mahoratini egallash;

Eng qiyini - mashg'ulotning birinchi davri, sanaladi. Qiyinchilik, birinchi navbatda, tovush chiqarish bilan bog'liq bo'lib uni birinchi daqiqalardan o'ziga jalb qilish, unga pianining afzalliklari va imkoniyatlari haqida gapirib berish orqali asta-sekinlik bilan bosqichma bosqich natijaga erishiladi.

Dastlabki bosqichda musiqiy tayyorgarlik fortepiano sinfidagi boshlang'ich eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish asosida musiqiy balandlik tushunchasini shakllantirishdan boshlanishi kerak.

Birinchi darslardan boshlab talabaga kichik, oson esda qoladigan kuylarni berish kerak va u o'qituvchi tomonidan ijro etib berilishi maqsadga muvofiq. Qolaversa asarning she'riy matnga ega bo'lishi ma'qul. Bu ijro etilayotgan asarni tushunishga yordam beradi va metr, ritm tushunchasini, ohang tuzilishini his qilishni osonlashtiradi.

«Cholg'u ijrochiligi» fanining maqsadi Ma'naviy yetuk, zamonaviy fikrlaydigan, musiqiy-ijrochilik ko'nikmalariga ega bo'lgan va saviyasi rivojlangan sozandalarni tarbiyalashdir.

“Bunda bir qator tadrijiy bosqichlar mavjudki ularning barchasi integratsion jarayon amalga oshirilib, birgalikda professional mutaxassisni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ular quyidagilar:

I – BOSQICH. I-bosqichdan boshlab barcha kamchiliklarni bartaraf qilish, ravon va tez xarakterlanishini, undagi kamchiliklarni bartaraf qilinishi bilan bog'liqdir. Barmoqlarni mustahkamlash, ularning erkin, yengil, aniq, ravon va tez harakatlanishini, muskullarning erkin harakatini ta'minlovchi texnikaning turli ko'rinishlari ustida ishlash bosqichning asosiy vazifalaridan hisoblanib talabalarda pedagoglik kasbiga nisbatan qiziqishlarini shakllanishiga yo'l ochib beradi.

Musiqiy asar ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish – muallif matnini savodli tarzda tahlil qilish, kerakli shtrix, applikatorani to'g'ri tanlash, pedalni vaqtida ishlatish.

Polifonik fikrlashni shakllantirish, tovush va kuychan xarakterdagi asarlar ustida ishlash, ovozning rang – barangligini o'zlashtirish va ijro etish.

II – BOSQICH. Gamma va mashqlar ustida ishlash, texnikaning turli ko'rinishlarini takomillashtirish, akkordli yirik texnika, barmoqlarning kichik xarakatlanishi, notani varaqdan ravon o'qish va ansambl ijrosi ko'nikmalarini o'zlashtirish.

Asarlar ustida ishlashda talabalar ijro etayotgan asarni tahlil qila olishlari, asarning ijrochilik g'oyasini, shaklini, uslubini, badiiy mazmunini va ma'nosini to'g'ri tushunib talqin qilishlari lozim. Repertuarni turli asarlar bilan to'ldirib borish: mohirona etyudlar va pyesalar, romantizm va impressionizm, zamonaviy o'zbek va jahon kompozitorlarining asarlarini o'rganish"[8].

III – BOSQICH. Tovushning yuqori sifati ustida ishlash, ijro erkinligi va epchilligi, barmoqlarning tabiiy va aniq harakati, texnikaning turli ko'rinishlarini egallash. Dasturni murakkablashtirish: konsertlar, yirik shakldagi asarlar, konsert etyudlar va pyesalar kiritish va hokazo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Mirziyoyev Sh.M. "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2017 y, 3-mart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907 sonli qarori. 14.08.2018.

O'zbekiston Prezidenti qarori, Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida, 02 02 2022 yil, PQ-112 son.

Ismoilova M. "Cholg'u ijrochiligida notaga qarab ijro qilish" Toshkent Yangi asr, 2020 y.

Muxitdinova Malohat Saidjabborovna. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda klasterli yondashuv masalalari»- Ta'lim fidoyilari-Respublika ilmiy-metodik jurnal, 9-son, ilmiy nashrlar markazi, 2021 y. y.

<https://uz.wikipedia.org/>

Musiqa fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar [Matn]: monografiya / Umurova Ma'rifat Yoshiyevna, Raximov Abdurasul Ravshan o'g'li – Buxoro: «Sadridin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, - 2022. – 136 b.

Sh.Raximov, Sh.S.Yusupov. "Cholg'u ijrochiligi". T., 2012 yil.

Sh.Omanqulova "Cholg'u ijrochiligi" o'quv qo'llanma Samarqand 2023 yil.